

SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI

Baxtiyorova Bahor Shodiyor qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “sharq mamlakatlari tarixi”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

E-mail: bahorbaxtiyorova70@gmail.com

Ilmiy rahbar: I.M. Xaydarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Annotatsiya: *Shayboniylar davrida Buxoro xonligi Markaziy Osiyoda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining hukmronligi davridagi Buxoro xonligining boshqaruv tizimi, ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi hamda madaniy meroslari tahlil qilinadi. Shayboniylar davri Buxoro hududida islom madaniyatining rivojlanishi va iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga olib keldi. Shuningdek, ushbu davrda istiqomat qilgan xalqlarning o‘zaro aloqalari va savdo - iqtisodiy aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Tadqiqotda manbalar va tarixiy faktlar asosida Shayboniylar xonligining markaziy o‘rniga taalluqli o‘rganishlar olib boriladi.*

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar, Buxoro xonligi, Markaziy Osiyo, siyosat, iqtisod, madaniyat, tarix, sulola, boshqaruv tizimi*

Annotation: *During the Shaybanid period, the Bukhara Khanate played a significant role in the political, economic, and cultural life of Central Asia. This article analyzes the system of governance, socio-economic development, and cultural heritage of the Bukhara Khanate during the rule of the Shaybanid dynasty. The Shaybanid era contributed to the development of Islamic culture in the Bukhara region and strengthened economic relations. Furthermore, interactions among the peoples living in this region and their trade-economic relations reached a new stage. The study is based on historical sources and facts, focusing on the central role of the Shaybanid state.*

Keywords: *Shaybanids, Bukhara Khanate, Central Asia, politics, economy, culture, history, dynasty, governance system.*

Аннотация: *В период правления Шайбанидов Бухарское ханство занимало важное место в политической, экономической и культурной жизни Центральной Азии. В данной статье анализируются система управления, социально-экономическое развитие и культурное наследие Бухарского ханства в эпоху Шайбанидов. Этот*

период способствовал развитию исламской культуры в регионе Бухары и укреплению экономических связей. Кроме того, взаимодействие народов, проживавших на данной территории, а также их торгово-экономические отношения вышли на новый уровень. Исследование основано на исторических источниках и фактах и направлено на изучение центральной роли государства Шайбанидов.

Ключевые слова: Шайбаниды, Бухарское ханство, Центральная Азия, политика, экономика, культура, история, династия, система управления.

KIRISH

Shayboniyalar davri Buxoro xonligi tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu davrda xonlik siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlandi hamda Markaziy Osiyo hududida o‘z ta‘sirini kuchaytirdi. Shayboniyalar sulolasi XVI-asrda Buxoro xonligini boshqargan bo‘lib, ularning hukmronligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va madaniy merosining rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar olib kirdi. Bu davrda ilm- fan, adabiyot va san‘at sohalari gullab-yashnadi, shuningdek, shahar va arxitektura sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Shu sababli, Shayboniyalar davri Markaziy Osiyo tarixidagi muhim sahifalardan biri sifatida qadrlanadi. Shayboniyalar davrida, ya‘ni XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida, Buxoro xonligi Markaziy Osiyoda joylashgan edi. Bu xonlik bugungi O‘zbekiston hududining katta qismini o‘z ichiga olgan va strategik jihatdan muhim bo‘lgan savdo yo‘llari kesishgan joyida joylashgan. Shayboniyalar sulolasi Buxoro xonligini mustahkamlab, uning siyosiy va iqtisodiy mavqegini oshirishda muhim ro‘l o‘ynagan. Shayboniyalar davrini o‘rganishning maqsadi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunishdan iboratdir.

Ushbu davr Buxoro xonligida yangi siyosiy tuzilishlarning shakllanishi, ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi hamda madaniyatning boyishini ta‘minlagan muhim bir davr hisoblanadi. Shayboniyalar siyosati va iqtisodiy faoliyati, ularning hududiy ekspansiyasi va madaniy merosi orqali, xonlik tarixining muhim burilish nuqtalarini ko‘rib chiqish mumkin. Shu sababli, ushbu davrni tahlil qilish Buxoro xonligining umumiy tarixiy oqimini anglashda, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bugungi davrga ta‘sirini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar sharhi. Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” nomli asarida o‘zbek davlatchiligining shakllanish bosqichlari keng qamrovli ko‘rib chiqilgan bo‘lib, Shayboniyalarning kelib chiqilishidan boshlab har bir hukumdorlarga alohida urg‘u berilgan. Ayniqsa Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II larning islohatlar alohida o‘rin egallagan. Bu manba orqali Buxoro xonligining boshqa davlatchilik an‘analari bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

B. Eshovning “O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” kitobi davlat boshqaruvi tizimini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda Shayboniylar davridagi ma‘muriy tuzilma, lavozimlar tizimi va ularning vazifalari haqida ma‘lumotlar kengroq keltirilib o‘tilgan. Mazkur manba orqali boshqaruv apparatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ham ochib berilgan. Shamsudinov R. Vatan tarixi nomli kitobida Shayboniylar davlatining tashkil topishi, uning siyosiy mustahkamlanishi va Markaziy Osiyodagi o‘rni tarixiy faktlar asosida tahlil qilingan. Xususan, Muhammad Shayboniyxon faoliyati, Temuriylar davlatining tugatilishi hamda yangi siyosiy tuzumning shakllanishi ochib berilgan. Asarda davlat boshqaruvi tizimiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, unda xon hokimiyatining o‘rni, saroy amaldorlari tizimi hamda harbiy-ma‘muriy tuzilmalari yoritilgan. Shayboniylarning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari xususan Shoh Ismoil va Boburiylar bilan aloqalari ham keltirilgan.

Q. Usmonovning “O‘zbekiston tarixi” asari esa umumiy tarixiy jarayonlarni yoritishda muhim o‘rin tutadi. Unda Shayboniylar davrining siyosiy voqealari, hududiy o‘zgarishlari va ijtimoiy hayoti umumlashtirilgan holda bayon etilgan.

Asosiy qisim. Shayboniylar davrida, ya‘ni XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida, Buxoro xonligi Markaziy Osiyoda joylashgan edi. Bu xonlik bugungi O‘zbekiston hududining katta qismini o‘z ichiga olgan va strategik jihatdan muhim bo‘lgan savdo yo‘llari kesishgan joyida joylashgan. Shayboniylar davrida Buxoro xonligiga quyidagi hududlar kirgan:

Movarounnahr – eng muhim markaziy hudud bo‘lgan. Shayboniylar davlatining siyosiy va madaniy markazi aynan shu yer edi.

Xorazm – XVI-asr boshida Muhammad Shayboniyxon tomonidan egallangan, ammo keyinchalik mustaqil Xiva xonligi ajralib chiqqan.

Xuroson – 1507-yilda Shayboniyxon Hirotni egallab, Temuriylar davlatiga yakun yasagan, ammo 1510-yilda Ismoil I bilan urushdan so‘ng bu hudud qo‘ldan ketgan.

Farg‘ona vodiysi – Temuriylardan tortib olinib, Shayboniylar nazoratiga o‘tgan.

Dashti Qipchoqning janubiy qismi – Shayboniylar asl kelib chiqishi shu hududdan bo‘lib, ular bu yer bilan doimiy aloqani saqlagan.

Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari – Strategik jihatdan muhim harbiy hududlar hisoblangan.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligi hududi hozirgi O‘zbekistonning katta qismi, Turkmanistonning bir qismi, Qozog‘iston janubi, hamda vaqtincha Afg‘oniston va Eronning ayrim hududlarini qamrab olgan. Shayboniylar sulolasi Buxoro xonligini mustahkamlab, uning siyosiy va iqtisodiy mavqei oshirishda muhim ro‘l o‘ynagan. Shayboniylar davrini o‘rganishning maqsadi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunishdan iboratdir.

Shayboniyalar davrida davlat boshqaruvi masalasiga to‘xtalib o‘tsak, bu davr boshqaruv tizimi haqida gap ketganda, temuriylar va ayniqsa chingiziylar bosqinidan avvalgi davrlardagidek davlat idoralari o‘rtasidagi aniq taqsimot haqida to‘liq va ravshan fikr yuritish biroz qiyinroq. Shuning uchun bu davrga oid tarixiy va boshqa turdagi manbalar hali yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan va ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzi an‘analari Jo‘ji ulusida (Dashti Qipchoqda) shakllangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning Shayboniyalar faoliyatida ham saqlanib qolganidir. Aniqroq aytganda, Shayboniyalarning Dashti Qipchoqdan Movarounnahr hududiga kirib kelishi natijasida, o‘sha hududga xos ayrim siyosiy va ijtimoiy an‘analar ham Turkiston markaziga yoyilishiga imkon tug‘ildi. Shu sababli, o‘zbek davlatchiligi tarixida Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Anushteginiylar va Temuriylar davrida shakllangan davlat boshqaruvi tizimi Shayboniyalar davriga kelib ma‘lum darajada konservativ yo‘nalishda rivojlana boshladi.

XVI-asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro Shayboniyalar davlatining ma‘muriy-siyosiy markazi sifatida e‘tirof etildi. Shundan so‘ng qonun kuchiga ega bo‘lgan barcha hujjatlar aynan Buxorodan chiqarilgan. Davlatdagi murakkab boshqaruv apparatini tashkil etgan ko‘plab amaldorlar ham Buxoroda markazlashgan. Davlat idorasi darargoh deb atalgan. Darargoh tepasida xon turgan bo‘lib, bu idora saroy devonida jamlangan va davlatning ichki hamda tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Davlatning oliy darajali amaldorlari shu yerda a‘zo bo‘lgan va odatda **bosh vazir**³⁶ tomonidan boshqarilgan. Shayboniyalar davlat boshqaruvida muhim lavozimlardan biri naqib hisoblangan. **Naqib**³⁷ xon huzurida katta vakolatlarga ega bo‘lib, uning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biri bo‘lgan. Yana muhim mansablardan biri **otaliq** edi. Bu lavozimga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan. **Ko‘kaldosh** (ya‘ni “bir onadan sut emgan”) lavozimi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ko‘kaldoshlar davlatning do‘st va dushmanlari haqida ma‘lumot to‘plagan. **Xon yasovuli**³⁸ lavozimidagi shaxslar sulola ichki munosabatlariga oid ishlarni boshqargan. Darargohdagi xavfsizlikni ta‘minlash, ichki tartib-qoidalar va kelib-ketuvchilarni nazorat qilish eshikog‘aboshi zimmasida bo‘lgan. Bundan tashqari, **miroxo‘r** (xonning ot-uloqlari va ularning ta‘minoti uchun mas‘ul), shig‘ovul (chet el elchilarini qabul qilish boshlig‘i), **qushbegi**,³⁹ chuhraboshi (harbiy qism boshlig‘i), **bakovul** kabi lavozimlar ham mavjud bo‘lgan. Harbiy sohada chuhraboshi va qurshiboshi (qurol-aslaha xizmatlari boshlig‘i) bilan **jarchi**, **qorovulbegi**, **tug‘begi** kabi xizmatlar ham faoliyat yuritgan. Bu lavozimlarda qo‘mondonlik mahorati muhim ahamiyat kasb etgan.

³⁶ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi Toshkent: Sharq, 2000. 244 b

³⁷ Abdullayev Sh. Shayboniyalar davrida Buxoro xonligi tarixi. “Fan va texnologiya”, 2005. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2006. 313 b

³⁸ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi Toshkent: Sharq, 2000. 244 b

³⁹ Eshov B. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. “Yangi avlodi”, 2012. 310 b

Shayboniylar davlat boshqaruvida harbiy va ma'muriy amaldorlar bilan bir qatorda ulamolar, shayxlar va xo'jalarning ham mavqei yuqori bo'lgan. Hatto eng kuchli hukmdorlar ham ular bilan hisoblashishga majbur bo'lganlar. Bu davrda Buxoro xonligida yer huquqi quyidagi turlarga bo'lingan:

- davlatga qarashli yerlar,
- ushr yerlar (hosildan soliq olinadigan yerlar)
- xurr-i xoris yerlar
- vaqf yerlar (diniy maqsadlarga ajratilgan yerlar)
- xon va amaldorlarga tegishli yerlar
- ko'chmanchi qabila va urug'larga tegishli yerlar
- suyurg'ol yerlar
- tanho yerlar
- tarxonlik yerlar

⁴⁰“**Iqto**” atamasi XIV-asrning ikkinchi yarmidan boshlab muomaladan chiqib, uning o'rnini turkiycha “**suyurg'ol**”⁴¹ atamasi egallagan bo'lsada, Shayboniylar davri ayrim manbalarida “iqto” atamasi ham uchraydi. Chunki iqto suyurg'ol va tanho tushunchalari mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, davlat oldidagi xizmat evaziga beriladigan yer-mulkni anglatgan. Suyurg'ol Shayboniylar davrida keng tarqalgan bo'lib, u shahzodalar, yirik zodagonlar va nufuzli diniy arboblarga ma'lum shartlar asosida berilgan. Bu yerlar nasldan-naslga o'tgan. Suyurg'ol egasi davlatga to'lanadigan soliqlardan ozod qilingan va o'z yeridan tushgan daromadni o'z ixtiyoriga ko'ra ishlatgan. Bunday imtiyozli suyurg'ol turi “**darubast suyurg'ol**”⁴² deb atalgan. Buxoro xonligida yangi siyosiy tuzilishlarning shakllanishi, ijtimoiy tuzumning o'zgarishi hamda madaniyatning boyishini ta'minlagan muhim bir davr hisoblanadi. Shayboniylar siyosati va iqtisodiy faoliyati, ularning hududiy ekspansiyasi va madaniy merosi orqali, xonlik tarixining muhim burilish nuqtalarini ko'rib chiqish mumkin. Shu sababli, ushbu davrni tahlil qilish Buxoro xonligining umumiy tarixiy oqimini anglashda, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bugungi davrga ta'sirini o'rganishda ahamiyatlidir.

Xulosa

Shayboniylar davri Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim burilish davri bo'ldi. Bu davrda Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Abdullaxon II larning pul islohatlar o'tkazdi. Shayboniylar o'tkazgan pul islohotlari orasida Abdullaxon II

⁴⁰ Abdullayev Sh. Shayboniylar davrida Buxoro xonligi tarixi. “Fan va texnologiya”, 2005. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2006. 313 b

⁴¹ Eshov B. O'zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. “Yangi avlodi”, 2012. 318 b

⁴² Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) Toshkent: Sharq, 2000. 246 b

ning islohoti nisbatan muvaffaqiyatli bo‘lib, bu islohot pul muomalasi inqiroziga barham berdi, kumushning davlat hududlaridan ko‘plab chiqib ketishini to‘xtatdi, xususiy metallni yana zarbxonalarga jalb etdi. Ushbu islohot Abdullaxon II ichki siyosatining bir qismi bo‘lib, tranzit, xalqaro va ichki shahar savdosining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Shayboniylar hukmronligi ostida Buxoro iqtisodi rivojlandi, savdo-sotiq ko‘paydi va shaharda yirik hunarmandchilik va sanoat markazlari shakllandi. Ijtimoiy sohada, ular qabilaviy tuzumdan bosqichma-bosqich o‘tib, yanada murakkab ijtimoiy qatlamlarni yaratish orqali boshqaruvni mustahkamlashga harakat qildilar. Madaniyat va ilm-fan sohasida ham ushbu davr yirik yutuqlar bilan esda qoladi: yozma adabiyot, madrasalar, masjidlar va madaniy inshootlar qurildi, shuningdek, Fors va Turk tillarida ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan adabiyot sohasida Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivoj topishida ushbu sulola namoyandalarining tutgan o‘rni katta bo‘lgani shubhasiz. Avvalo, ularning o‘zlari nihoyatda o‘qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkunchixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Javonmardali Sulton kabi shayboniylar turkiy va forsiy tillarda she‘r bitganlar, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo‘lganlar. Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivoj topishida ushbu sulola namoyandalarining tutgan o‘rni katta bo‘lgani shubhasiz. Avvalo, ularning o‘zlari nihoyatda o‘qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkunchixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Javonmardali Sulton kabi shayboniylar turkiy va forsiy tillarda she‘r bitganlar, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo‘lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta’limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydullaxonning musiqa ilmiga katta qiziqishi bo‘lgani, musiqa asboblarini chalganligi va nozik husnixat egasi bo‘lgani ma’lum. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta’limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydullaxonning musiqa ilmiga katta qiziqishi bo‘lgani, musiqa asboblarini chalganligi va nozik husnixat egasi bo‘lgani ma’lum. Shu tarzda, Shayboniylar davri Buxoro xonligining dastlabki harakati sifatida davlat shakllanishining muhim bosqichini tashkil etdi va mintaqaning siyosiy, madaniy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Shayboniylar sulolasi hududda mustahkam davlat qurish, iqtisodiy va savdo sohalarini rivojlantirish orqali mintaqaning siyosiy xaritasini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Xo‘jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O‘ratepa, Shahrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Shayboniylar hukmronligi ostida Buxoro markaziy boshqaruv va madaniyatning markazi sifatida shakllandi, bu esa keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda etnik va madaniy o‘ziga xosliklarning rivojlanishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) Toshkent: Sharq, 2000.
2. Eshov B. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. “Yangi avlodi”, 2012.
3. Sultanov, F. Shayboniylar xonligining manzarasi va ta’siri: “O‘qituvchi nashriyoti”, 2010.
4. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2006.
5. Zamonov A. O‘zbekiston tarixi III-qisim. “Bayoz”, 2023.
6. Shamsudinov R. Vatan tarixi II-kitob Toshkent-Sharq, 2010.